

IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT VA MADANIYAT MAKTABLARIDA DIRIJORLIK FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USHLARI

*X.A. Xasanova,
Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan
madaniyat maktabi "xor-dirijorligi" bo'limi
yetakchi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablarining "xor-dirijorligi" yo'nalishida dirijorlik (mutaxassislik) fanining o'rni va vazifalari. Dirijorlik fanini o'qitishda uchrashi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha amaliy maslahatlar.

Kalit so'zlar: musiqa, iste'dot, individual yondashuv, pedagogik mahorat, musiqiy idrok, dirijorlik, mutaxassislik, auftakt.

Аннотация. Роль и задачи предмета дирижирования (специализации) по направлению хорового дирижирования специализированных школ искусств и культуры. Практические советы и проблемам, которые могут возникнуть при обучении предмету дирижирования

Ключевые слова: музыка, талант, личность, подход, педагогическое мастерство, музыкальное восприятие, дирижирование, мастерство, ауфтакт

Annotation. The role and tasks of the subject of conducting (specialization) in the direction of choral conducting of specialized schools of arts and culture. Practical advice on the problems that may arise in teaching the subject of conducting

Key words: music, talent, personality, approach, teaching skill, musical perception, conducting, expertise, auftakt.

Hozirgi kunda yurtimizda mavjud ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 9- yanvardagi 9-son qaroriga asoslanib o'z faoliyatini olib boradilar. Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablarida san'atning bir necha turlarini o'z ichiga qamrab olgan yo'nalishlar mavjud. Shu jumladan, musiqa, aktyorlik, dizaynerlik, rassomchilik, haykaltaroshlik va boshqa yo'nalishlar. Musiqa yo'nalishiga tegishli o'ziga hos serqirra hamda murakkab yo'nalishlardan biri "Xor-dirijorligi" yo'nalishi hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablarida bo'lajak dirijorlar 2 yil davomida gumanitar hamda maxsus fanlar bo'yicha tahsil oladilar.

Dirijorlik fani "Xor-dirijorligi" yo'nalishining namunaviy o'quv rejasida berilgan maxsus fanlar orasida yetakchi fan hisoblanadi va "Mutaxassislik" deb yuritiladi. Mutaxassislik fani bo'yicha mashg'ulotlar yakka olib boriladi. Har bir o'quvchiga birlashtirilgan o'qituvchi yuksak bilim salohiyati va pedagogik mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi. O'quvchi 2 yil davomida o'z o'qituvchisidan dirijorlik san'atining sir-asrorlarini o'rganib boradi.

Dirijorlikni o'rganishdagi talablar qanday? Dirijorlik san'ati o'zi nima? Dirijor (*frans. "diriger" - boshqarish*) musiqa asarini jamoviy ijrosiga rahbarlik qiluvchi shaxsdir. Aynan xor-dirijorlari ovoz bilan ishlaganligi sabab, inson ovozi hususiyatlarini chuqur o'rganishi lozim.

Dirijorlik fani xor-dirijorlik yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fani hisoblanar ekan, bu fan bo'yicha o'quvchining har bir darsda egallagan bilim ko'nikmalari uning kelajakdagi o'rnini belgilab beradi. Mutaxassislik fani 2 asosiy qismga ajratiladi.

1. Asarlarga dirijorlik qilish: Ya'ni, o'quvchining musiqiy qobiliyatini hisobga olgan holda maxsus tanlangan asarlarga musiqiy o'lehovlar asosida dirijorlik harakatlarini bajarish .

2. Kolokvium – bu murakkab jarayon hisoblanib, bo'lajak dirijorlarni kasbiy mahoratini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Kolokvium dirijorlik qilinayotgan asarlarni musiqiy va badiiy tahlilidir. Bu jarayonda o'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda asarni tahlil qiladi, o'qituvchi asarni fortepianoda to'g'ri iboralash, jumlash orqali ohangdor qilib ijro etish sir-asrorlarini o'rgatishi zarur. Bundan tashqari xor partiturasidagi barcha ovozlarni vertikal va gorizontaal musiqiy nazariy tahlil qilgan holda birma-bir kuylab chiqadi. Shuningdek, tashqari asar kompozitorining hayoti va ijodi, asarning badiiy mazmuni ham o'rganiladi. Huloosa qilib aytganda asar har tomondan o'rganib chiqiladi.

Dirijorlik darsi eng avvalo dirijorlik apparatini o'rnatishdan boshlanadi. Bu jarayon bir muncha e'tibor va vaqt talab etadi. Dirijorlik apparatini o'rnatishda mushaklar erkinligi, qo'llarning egiluvchanligi, yelkarni ko'tarilib ketmasligi, gavda tik va erkin holatda bo'lishini o'qituvchi nazorat qilishi zarur, jarayonning yengil yoki aksincha o'tishi o'quvchining zehniga bog'liq. Dirijorlikning asosiy harakatlariga o'tishdan oldin 3 ta asosiy holat mavjud. Bular: diqqat, auftakt va asarga kirishdir.

Diqqat dirijorlikda muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda dirijor jamoani diqqatini yig'ib olishi, fikrini jamlashida ahamiyatlidir. Diqqat holatida o'quvchining yuz ifodasi, ko'zlarida asarga xos kayfiyat sezilib turishi kerak. Bu jarayon qobiliyatli o'quvchilarda yengilroq va tezroq bajariladi. Uyalchang va tortinchoq o'quvchilarda esa bir oz jarayon sekin va samarasiz o'tishi mumkin. Bunday muammoli holatlarda o'qituvchi asar karakteridan kelib chiqib hayotiy voqealar misolida o'quvchiga asar karakterini singdirishi lozim. Bu holat ustida doimiy ravshda ishlanadi.

Dirijorlikning yana bir muhim elementlaridan biri - bu auftaktdir. Auftakt (*nem. auf - ustida, lot. taktus - tegish*) – qo'l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo'l harakatidir. Auftakt – jamoani diqqatini to'liq yig'ilganligiga ishonch hosil qilingandagina bajariladigan aniq va qisqa ogohlantiruvchi harakat yoki ishora.

Auftaktlar asar xarakteriga qarab yumshoq va qattiq bo'lishi mumkin. Temp, ritm, dinamika shtrix, pauzalardan keyingi ijrolar kabi bir qancha holatlarda auftakt ishlatiladi. Auftakt aniqlikni talab etadi. Qo'llar go'yoki havoda biror to'siqqa

tegib birdan yuqoriga ko'tariladi. Bu jarayonni o'quvchi yanada yaxshiroq his qilishi uchun bir necha misollar keltiriladi. Masalan, juda issiq narsani ushlab olishdagi yoki o'tkir jismni barmoqlar uchiga sanchilishi oqibatida barmoqlarni birdan tortib olish kabi misollar bilan o'quvchi ongiga yetkaziladi. Bundan ko'rinib turibdiki, qo'llar havoda birdaniga yuqoriga sabchib ko'tarilishi kerak. Agar o'quvchi bu holatni havoda bajara olmasa o'quv stolida o'tirgan holda yoki biror tekki yuzalikda bajarishi mumkin. Bu holatda yuzalikka barmoqlar uchi bilan tegib, birdaniga qo'llarni yuqoriga ko'tarish lozim. Bu mashqlar toki o'quvchi auktakni his qilgunga qadar doimiy ravishda bajartiriladi. Ba'zi holatlarda vaqt o'tishi bilan auktakni aniqligi yo'qolib, o'quvchi bilan auktak ustida qayta ishlashga to'g'ri keladi, ya'ni doimiy nazoratni talab qiladi.

Yuqoridagi ikki holat, ya'ni diqqat va auktak ustida ishlab olingach, keyingi bosqich dirijorlik o'lchovlarini o'rganishdir. Dirijorlik o'lchovlarini o'rganishda asosan oddiy o'lchovlardan boshlab o'rgatiladi. Bunda kuchli va kuchsiz hissalarini aniq ko'rsatish talab etiladi. Dirijorlik mobaynida yelka, tirsak va barmoqlarning ham to'g'ri qo'yilganligiga ahamiyat berish lozim, ya'ni yelkalar tabiiy erkin holda dirijorlik harakati vaqtida ko'tarilmasligi kerak. Ayrim hollarda yelkalarni oldinga yig'ib olish yoki orqaga ketib qolishi hisobiga jag' qismi tepaga ko'tarilish oqibatida bosh qismi orqaga ketib, bo'yin qismida qisilish holati yuzaga keladi, bu holatga o'qituvchi o'quvchiga to'g'ri holatni albatta tushintirishi, amalda ko'rsatib berishi zarur. O'quvchi o'zini nazorat qilishi uchun dirijorlik harakatlarini ko'zgu qarshisida turib bajarishi kerak. Ushbu mashqlar dirijorlik apparatini to'g'ri ushlashda tavsiya qilinadi.

Dirijorlik apparatini to'g'ri o'rnatish uchun mashqlar

Maqsad: Yelka va bosh qismini to'g'ri ushlash.

Material: Orqa kuraklarni suyash uchun mustahkam vertikal turgan xona jihozlari (*eshik, devor, shkaf*).

Jarayon: Mashg'ulot tik turgan holatda bajariladi. Eshik, kitob javoni yoki devorga kuraklar tegib turgan holda dirijorlik harakatlari bajariladi. O'qituvchi harakatlar maqsadga muvofiq bajarilayotganligini sinchkovlik bilan nazorat qilishi lozim. Mashg'ulotni to'g'ri bajarish orqali yelka qismi bilan bog'liq muammolar barham topadi. Yelkalarni to'g'ri tutishda yana bir usul mavjud – o'quvchining boshiga yengilroq kitob qo'yib dirijorlik qildirish, bu ham qomatni to'g'ri tutishda qo'l keladi.

Barmoqlarni va bilaklarni to'g'ri ishlash uchun mashqlar

Maqsad: Barmoq va bilaklarni to'g'ri holatga keltirish.

Material: Dumaloq shakldagi biror buyum yoki koptokcha hamda bilaklarni to'g'ri haraklantirish uchun yumshoq soch boylami (rezinka) va gugurt qutisi.

Jarayon: O'quvchining qo'l harakatidagi kamchiliklariga ko'ra mashqlar tanlanadi. Agar muammo barmoqlar bilan bog'liq bo'lsa dirijorlik qilish jarayonida o'quvchi qo'lga koptokcha tutqazilib, barmoqlar yarim oy shakliga keltiriladi va shu bilan bir qatorda barmoqlar orasi ochilib ketmasligi nazorat qilinadi. Bilaklar

yumshoq erkin harakatlanishi kerak Bu mashqlar toki o'quvchi mustaqil to'g'ri bajarmagunga qadar o'qituvchi nazoratida yoki ko'zguna qarab bajarilishi lozim.

Dirijorlik murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda jismoniy harakatlar aql va idrok bilan sintezlashadi. Shuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda musiqiy shakli juda sodda, tez esda qoluvchi, matni ham tez yod olinadigan, imkon qadar o'quvchiga musiqasi tanish yoki musiqasi insonni o'ziga jalb qiladigan darajada chiroyli va jozibador bo'lsa o'quvchi yanada ishtiyoq bilan dirijorlik qila boshlaydi hamda bu san'at turiga qiziqishi ortadi. Dirijorlik mashg'ulotlari dastlab eng sodda harakatlardan boshlanadi, ya'ni asarlarni shunchaki taktilash bu jarayonda o'quvchining qanchalik tempni, ohangni his qilish qobiliyati tekshiriladi. Ba'zi hollatlarda o'quvchilar asar tempidan oldinlab yoki aksincha qolib ketishlari mumkin. Bunday holatlarda jo'rnavozdan taktning kuchli hissalarini bo'rttirib ijro etishi so'raladi. Bu holatda o'quvchi har gal kuchli hissani his qilish orqali asar tempidan qolib ketishi yoki o'zib ketishi holatlaridan tiyiladi. Doimiy sifatli mashg'ulotlar natijasida o'quvchida ushbu kamchilik sekin-asta yo'qolib boradi. Bundan tashqari dirijorlik darslarini dastlabki kunlarida qo'l mushaklari tez-tez toliqishi, yelka va bo'yin sohalarida tortishishlar kuzatiladi, bu albatta o'quvchi uchun noodatiy harakatlar bo'lganligidandir. Bunday holatlarda qo'l va yelka mushaklarini yumshatish zarur. Buning uchun qo'llar dastlabki holatga qaytariladi, ya'ni qo'llarni pastga osiltirib bir necha bor siltab tashlanadi. Natigada qo'l mushaklari bir oz bo'shashib, mushaklar tortishishi kamayadi. Bu usuldan har gal o'quvchining qo'llarida tortishish, og'riq his etilganda bajarishi tavsiya etiladi. Qo'l mushaklari dirijorlik harakatlariga tezroq moslashishi erkin, og'riqsiz harakatlanishi ushun doimiy ravshda ko'zgu oldida shug'ullanishi kerak bo'ladi. Dirijorlik harakatlari albatta tik turgan holda bajarilishi darkor. Dirijorlik harakatlari yumshoq, tekkis bo'lishi uchun sekin shoshilmasdan har bir harakatni diqqat va e'tibor bilan bajarish tavsiya etiladi. Dirijorlik harakatlarini to'g'ri bajarishda o'quvchidan o'ta diqqatliqlik, xushyorlik va ziyraklik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamaxmudova B.V. *Xor fanlarini o'qitish uslubiyoti*.
2. Kazachkov S.A. *Dirijorskiy apparat I yego postonovka*.
3. Shamaxmudova B.V. *Xor lug'ati*.